

Osio mo'jiza daraxti O'zbekistonda

OSIYO MO'JIZA DARAXTI YEVROPA TEXNOLOGIYASI ASOSIDA O'ZBEKISTON SHAROITIGA MOSLASHTIRILADI



O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Navoiy bo'limida Bolgariyaning «Paulownia BG» kompaniyasi menejeri Djan Duralov va bo'lim raisi Abdurazak Mirzaevlar o'rtasida O'zbekistonda birinchi povlovniya plantatsiyasini yaratish bo'yicha muzokaralar bo'lib o'tdi.

Ma'lumki, pavlovniyaning tarixiy vatani Janubiy va Janubi-Sharqiy Osiyo bo'lib, Dj.Duralov o'n yildan ortiq vaqtdan buyon mo'jizaviy daraxtni yetishtirish bilan shug'ullanadi. U o'zining texnologiyasini ishlab chiqib daraxtni Bolgariya sharoitiga muvaffaqiyatli moslashtirdi. So'ng 2017 yilda Qirg'izistonning "Social Tree" kompaniyasiga Markaziy Osiyo mintaqasida birinchi bo'lib Qirg'izistonning Issiqko'l viloyatida pavlovniya plantatsiyasini tashkil etishga yordam berdi. O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining akademiklari va yetakchi olimlaridan iborat delegatsiyasi joriy yilning sentyabr oy boshlarida qo'shni Qirg'iziston respublikada ikki mamlakat Fanlar akademiyalari tomonidan tashkil etilgan Xalqaro ilmiy-amaliy seminarda ishtirok etishgan chog'ida ushbu plantatsiyani kurishgan edi.

Bo'lim raisi A.Mirzaev sentyabr oyining ikkinchi yarmida yana Qirg'izistonga

tashrif buyurib, Dj.Duralov bilan uchrashdi va unga Navoiy bo'limining "Qizilqum" ilmiy-tadqiqot stantsiyasi" davlat unitar korxonasi balansidagi Nurota tumanidagi 600 gektarli lalmi yerlaridan bir qismida pavlovniya plantatsiyasini yaratish loyhasini taqdim etdi hamda O'zbekistonga taklif qildi.

Bolgariyadan kelgan mehmonning so'zlariga ko'ra, pavlovniya - bu oddiy o'simlik, ammo uni yetirish uchun malakali parvarish talab etiladi. U quyosh nuri ko'p tushadigan joylarda o'sadi, shuning uchun u O'zbekistonda mukammal ildiz otishi kerak. O'simlikning rivojlanishi uchun zarur bo'lgan issiqlik miqdorini hamda havo va tuproqning o'rtacha kunlik haroratining yig'indisi sifatida tavsiflovchi Growing Degree Days ko'rsatkich Navoiy viloyatida 2814 ni tashkil etadi. Bu Bolgariyaga nisbatan 1,6 - baravar, Issiqko'lga qaraganda 2,8 - baravar ko'p darajadan oshiqroq bo'lib, doimiy va o'rtacha sug'orish, o'g'itlash ham bu masalada katta ahamiyatga egadir.

Shu asnoda, uchrashuv qatnashchilari loyihani Nuratda muvaffaqiyatli amalga oshirish tadqiqotchilar va tajribali fermerlarning ishtirokida daraxtni muayyan sharoitlarga moslashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishni talab qiladi degan fikrga kelishdilar.

Loyiha tafsilotlarini muhokama qilish jarayonida tomonlar Bolgariya kompaniyasi tomonidan pavlovniya ko'chatlari va Isroilda ishlab chiqariladegan tomchilatib sug'orish tizimini yetkazib berish to'g'risida kelishib oldilar. Shuningdek, «Paulownia BG» kompaniyasi pavlovniya plantatsiyasini yaratish uchun barcha zarur ma'lumotlarni taqdim etishi muhokama qilindi. Dj.Duralov daraxtlarni ekishda shaxsan qatnashadi, agar kerak bo'lsa uning o'sishi davrida maslahat beradi, besh yil davomida O'zbekistonga har 15-30 kunda bir marta keladi. Shu bilan birga, Markaziy Osiyoda mo'jiza daraxtini yetishtirish bo'yicha tajribaga ega bo'lgan Qirg'izistonning "Social Tree" kompaniyasi vakillari ham o'z tajribalari bilan o'rtoqlashadi.

Muzokaralar yakunida ishtirokchilar Nurota tumanida Navoiy bo'limining "Qizilqum" ilmiy-tadqiqot stantsiyasi" DUK balansidagi yerlarni borib ko'rishdi va O'zbekistonda birinchi pavlovniya plantatsiyasi uchun 50 gektar yerni belgilab olishdi. Shunga ko'ra, yetirishtirilgan daraxtlarning asosiy qismi yog'och tayyorlash uchun, ma'lum bir qismi pelletlar va hayvonlarga barglaridan ozuqa olish uchun ishlatiladi.

Kelgusida loyihaning birinchi bosqichini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun "Pavlovniya" Markazini tuzish rejalashtirilgan bo'lib, u yerda pavlovniyadan

olinadigan imkoniyatlar taqdimoti o'tkaziladi va manfaatdor fermerlar uchun maslahatlar beriladi. Pavlovniya plantatsiyasi yonida qurilish materiallari, chorva mollari uchun granulali ozuqa va mebel ishlab chiqarish sexlari quriladi. Bular barchasi pavlovniya klasterini tashkil etish uchun asos bo'ladi.

Dj.Duralov O'zbekistonga tashrifi davomida O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi rahbariyati bilan ham uchrashdi va hamkorlik istiqbollarini muhokama qildi.